

## **MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISHDA MONTESSORI METODIKASIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI.**

S.S. Sayitov

p.f.n. NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasi

Boltayeva Nasiba

NavDPI Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi magistranti.

### **Annotasiya:**

ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda ilmli va ma'rifatli jamiyatni yaratish va uchinchi renessans poydevori bo'ladigan yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs bo'lishi shu bilan bir qatorda nogironligi bo'lgan bolalarni ham ta'lidan chetda qoldirmaslik, ularni zamon bilan hamnafas bo'lishlari, inkluziv ta'limga muhtoj bo'lgan bolalarni sifatli ta'lim olishlarini har tomonlama qo'llab quvvatlash haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** inkluziv, integratsiyalashgan, sitrategiya, mobillashuv, Xalqaro Yunesko, Yunisef, Osiyo Taraqqiyot Banki, Sen Yolg'iz Emassan", "Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llash" (ITQF) fondi, Xalq Ta'lim, Sog'lijni saqlash.

### **Annotation:**

In this article, it is important to create a new enlightened society in Uzbekistan and to ensure that young people, who will be the foundation of the third renaissance, become full-fledged adults and do not exclude children with disabilities from education, keep pace with the times. ideas on how to fully support children in need of quality education.

**Keywords:** inclusive, integrated, citrategy, Roadmap, UNESCO, UNICEF, Asian Development Bank, You Are Not Alone, Social Initiatives Foundation (ITQF), Public Education, Health Preservation.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish jarayonida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ta'lim tizimi va mazmunini demokratizatsiyalash davlatimizning ustivor siyosati XXI - asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk, dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishdan iborat.

Mariya Montessori italiyalik shifokor va pedagog bo'lib, o'z nomini ko'targan bepul ta'lim g'oyasiga asoslangan o'ziga xos pedagogik tizimi bilan mashhur. Uning pedagogik tizimi hali ham dunyoning ko'plab davlat va xususiy maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridalarida qo'llaniladi, Xalqaro Montessori assotsiatsiyasi faoliyat ko'rsatadi.

Montessori ko'plab yutuqlaridan biri yosh bolalarni o'qitish usuli bo'lib, u xuddi shu nomdag'i kitobda batafsil tasvirlangan "Montessori usuli" sifatida dunyo miqyosida e'tirofga sazovor bo'ldi. Bu usul bolaning o'z tashabbusi va tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, asosan amaliy o'yinlar orqali ta'kidlaydi.

Maxsus ta'lism sohasini rivojlanishini qayta ko'rib chiqish siyosati amalga oshirila boshladi. M. Montessori o'zining pedagogik tizimini didaktik jihatdan tayyorlangan muhitda bolaning o'zini o'zi rivojlantirish tizimi deb atagan. Kattalar bilan yaqin joyda o'tadigan bolaning hayot yo'lini o'rganish, uning ta'lism usullari va tamoyillariga aralashish emas, balki u pedagogik antropologiyaning asosini o'rganish edi. M. Montessori har qanday amaliy harakatlar, nazariyalar va modellar faqat rivojlanayotgan shaxs haqidagi fundamental bilimlarga asoslanishi mumkin deb hisoblardi. Bolalarning holati va xulq-atvorini ilmiy kuzatishlar unga "diqqatning qutblanish hodisasi" ni aniqlashga yordam berdi, shundan aslida u bolaning erkin o'zini o'zi rivojlantirishi va uning ishini maxsus mакtabda tashkil etish usullari to'g'risida xulosa chiqaradi. Mariya Montessorining muhim asarlaridan biri "Bolalar boshqacha" deb nomlangan.

Quyidagilar inklyuziv ta'lism tizimining strategik maqsadlari hisoblanadi:

- umumta'lism tizimida imkoniyati cheklangan bolalarning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lism tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lism olish uchun teng imkoniyatlarni yaratish; O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarda teng imkoniyatlarni ta'minlash, ta'lism olish uchun qulayliklarga ega bo'lish, tevarak atrofdagilarning ijobjiy munosabatini shakllantirish, sog'lig'ida imkoniyatlari cheklangan shaxslarning umumta'lism muhitiga integratsiyasini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'lism to'g'risidagi moddalarni tasdiqlash;
- inklyuziv ta'lismning ta'lism sohasidagi siyosat maqsadlari va ustuvor yo'nalishlariga muvofiq tarzda qonunchilik bazasini takomillashtirish, me'yoriy-huquqiy ta'minot masalalarini tartibga solish;
- inklyuziv ta'lismni rivojlantirish maqsadida barcha strategik tuzilmalarni, davlat va nodavlat tuzilmalarni birlashtirish;
- inklyuziv ta'lismning ommabopligi, ta'lism tizimining o'qitishning ta'limiylarini inobatga olgan holda rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligini ta'minlash;
- inklyuziv ta'lism muassasalari uchun maxsus o'quv rejalarini, o'quv-uslubiy komplekslarni ishlab chiqish;
- tevarak-atrofdagilar, boshqa tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarga kirishish, o'quvchilarda va atrofdagilarda muloqotchanlik hamda tolerantlikni shakllantirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar sifatli, ularning ehtiyojlari hamda imkoniyatlariga mo'ljallangan ta'lism olishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zaruriyati. 2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lismni rivojlantirish konsepsiyasiga O'zbekistonda

inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi:

- alohida ta'limga muhtoj bolalar o'qiydigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- ushbu ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o'quv qurollari, turli kasblar bo'yicha o'qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash va boshqalar.

### **M. Montessori tizimining kamchiliklari:**

1. Montessori usuli faqat aql va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.
2. Tizimda rol o'ynash va ochiq havoda o'yinlar mavjud emas.
3. Bolalarning aqliy rivojlanishiga to'siq sifatida ijodkorlikni inkor etish (psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar boshqacha fikrda). Shuni ta'kidlash kerakki, oxirgi ikkita kamchilik oddiy o'yin xonalari Montessori bog'larida majburiy ravishda yaratilganligi va bola butun vaqtini bolalar bog'chasida o'tkazmasligi bilan qoplanadi.
4. Demokratik Montessori tizimidan so'ng bolalarning oddiy bog'cha va maktablarda tartib-intizomga ko'nikishi qiyin.

Respublikada inklyuziv ta'lim siyosatini keng joriy qilishga qaratilgan chora tadbirlar xalqaro va milliy ish tajribalarni o'rganish davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorlik loyihalari jumladan: Xalqaro Yunesko, Yunisef, Osiyo Taraqqiyot Banki ,Osiyo mintaqasi "Yaponiya"da joylashgan (ASSU) Yuneskoning madaniy markazi, YuSAID, Mersi Projekt, Opereyshen Mersi, Milliy nodavlat jamoa tashkilotlari, "Respublika ijtimoiy moslashuv markazi"(RIMM), "Sen Yolg'iz Emassan", "Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llash" (ITQF) fondi, Xalq Ta'lim, Sog'liqni saqlash, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari va boshqa bir qator ma'muriy organlar, milliy nodavlat jamoa tashkilotlari tomonidan hamkorlik loyihalari asosida respublika va xalqaro seminar, konferentsiya, forumlarni o'tkazish bo'yicha targ'ibot, tashviqot ishlari va amaliyatga tadbiq qilish asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda inklyuziv ta'limning dolzarbligi shundaki, imkoniyati cheklangan bolalar sonining ko'payishi va maxsus korreksion ta'lim muassasalarning yetarli emasligi hamda, jamiyatdagi o'zgarishlar ya'ni totalitar tizimdan demokratik tizimga o'tilishi shuningdek, inklyuziv ta'lim sharoitida bola sog'lom tengdoshlari orasida bo'lib oiladan ajralmagan xolda ta'lim-tarbiya olishga tuyassar bo'ladi. Xozirgi kunda jahon miqyosida keng targ'ibot qilinayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi, ya'ni rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash masalasi O'zbekistonda ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOT:**

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING "NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH TIZIMINI YANA-DA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI QARORI.
2. O'zbekistonda inklyuziv (integratsiyalashgan) ta'limdi 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi.
3. Bola xuquqlari to'g'risidagi Konvensiya 1989y
4. XTV 234-sonli buyrug'I - "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"-2005 yil 19 sentyabr
5. 2020 - yil 19 maydagi Oliy Majlis qarori.  
Ture Yonson "Inklyuziv ta'lim" Operayshen Mersiy tashkiloti tomonidan tarjima qilingan. Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
6. Roy Mark Konki " Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YuNESKO-2004yil. O"qituvchilar uchun qo'llanma.
7. "Aloxida yordamga muxtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy - nazariy konferentsiya materiallari.  
Toshkent-"Uzinkomtsentr"-2002 yil
8. <https://www.uzedu.uz/oz/nogironlarga-talim-berish-qarori-loyihasi>